

“TASDIQLAYMAN”

**Viloyat hokimligi Injiniring
kompaniyasi direktori**



A. Ilmuratov

_____ 2022 yil

**Samarqand viloyati Bulung`ur tumani “Bulung`ur” MFY dagi
bolalar va o`smirlar sport maktabi binosini rekonstruksiya qilish
ob`yekti bo`yicha loyiha oldi va ishchi loyiha- smeta hujjatlarini
tayyorlash uchun**

Loyihalash topshiriq

Samarqand-2022y.

№ p/p	Asosiy talablar va ma'lumotlar mazmuni	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Ob'ektning nomi	"Samarqand viloyati Bulung`ur tumani "Bulung`ur" MFY dagi bolalar va o'smirlar sport maktabi binosini rekonstruksiya qilish"
2	Qurilish joyi	Samarqand viloyati, Bulung`ur tumani
3	Buyurtmachi	Samarqand viloyat hokimligi Injiniroing kompaniyasi
4	Ishlab chiqarish uchun asos	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi rayosati majlisining bayoni 2022- yil 10- oktabr № 151
5	Qurilish turi	Rekonstruksiya
6	Moliyalashtirish manbai	Davlat budjet mablag'lari
7	Qurilishni boshlang'ich bahosi (mln.so'm)	3 000,0 mln.so'm
7a	Loyihalash bosqichi	Bir bosqichli loyihalash
8	Loyiha tashkiloti	Tender (tanlov) natijalari bo'yicha aniqlanadi
9	Pudrat tashkiloti.	Tender (tanlov) natijalari bo'yicha aniqlanadi
10	Ob'ektning asosiy-texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari, quvvati, unumdorligi, ishlab chiqarish dasturi, shuningdek turar-joy yoki umumiy binolar, ularning vazifalari (qavatlar soni, seksiyalar va kvartiralar soni, qabul qilish va sig'im qobiliyati)	<p>Bosh rejada sport zal va yordamchi binosi hamda tribuna, yong'inga qarshi hovuz, handak, hojatxona, ko'mir xona, mini stadion, kourking maydonchasi, tashqi chiqindi yig'ish maydonchasini joylashtirish ko'zda tutilsin.</p> <p>Hudud va qurilish maydonchasining seysmikligi - mintaqaviy (tuproq sharoitini hisobga olgan holda), QMQ 2.01.03-19 "Seysmik hududlarda qurilish"ga muvofiq.</p> <p>Tashqi havo harorati-mintaqaviy, QMQ 2.01.01-94 "Loyihalashtirish uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma'lumotlar"ga muvofiq</p> <p>Qor va shamol yuki - QMQ 2.01.07-96 "Yuklar va ta'sirlar"ga muvofiq.</p> <p>Binoning yong'inga chidamliligi - II daraja.</p> <p>Yer osti suvlari sathi (minimal hisobda)-muhandislik geologiya xulosalari asosida</p> <p>Muzlash chuqurligi- mintaqaviy</p> <p>Bino va inshootlar atrofida o't o'chirish mashinalari erkin harakatlanishi uchun yo'laklar loyihalashtirilsin.</p> <p>Xonalarni joylashtirish, ularning tarkibi, quvvati va maydoni amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalariga, sanitariya-gigiena va yong'in xavfsizligi standartlariga muvofiq ishlab chiqilsin, shuningdek nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay sharoitlarni yaratishi ko'zda tutilsin.</p> <p>Quyoshdan va shamoldan himoya qilish uchun uchastka perimetri bo'ylab dekorativ daraxtlar ekish va obodonlashtirish nazarda tutilsin.</p>
11	Arxitektura-qurilish, hajmli-	Loyiha yechimlarini tanlashda yorqin,

	<p>rejalashtirish va konstruktiv yechimlar, blokirovkalash shartlari, binolarni pardoqlashga talablar</p>	<p>Arxitekturaviy binolarning zamonaviy ko'rinishlari, energiya tejankor konstruksiyalar va texnologiyalardan foydalanishga e'tibor qaratilsin.</p> <p>Konstruksiyalarini favqulodda holatlarda (yong'in, zilzila va h.k) muntazam yemirilishdan himoyalash nazarda tutilsin.</p> <p>Sanitariya-gigiena talablariga mos, mustahkam, yong'in xavfsizligi sertifikatlariga va uzoq muddat foydalanish ko'rsatkichlariga ega, samarali, namlikka chidamli, shuningdek qurilish davriyligini kamaytiradigan pardoqlash mahsulotlaridan foydalanilsin.</p> <p>Binoga kirish qismiga, pandus, zina maydonchasi, tambur va ayvoncha nazarda tutilsin.</p> <p>Ichki pardoqlash ishlarining turlari xonalarning belgilangan vazifasiga ko'ra berilsin.</p> <p>Yuvinish va ichki hojatxonalarda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun zarur sharoitlar bo'lishi ta'minlansin.</p> <p>San.uzel xonalarida xonaning chekka burchagida nishab bilan trap urnatishni inobatga olish;</p>
<p>12</p>	<p>Yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalarning konstruktiv yechimlariga bo'lgan asosiy talablar</p>	<p>Loyihaviy va konstruktiv yechimlar zilzilabardoshlik, portlash hamda yong'in xavfsizligi talablarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.</p> <p>Loyihada sifat sertifikatiga ega bo'lmagan yoki eskirgan, chiqarish bekor qilingan uskunalar, materiallar va mahsulotlardan foydalanilmasin.</p> <p>Barcha konstruksiya va materiallar amaldagi standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik sof materiallardan tayyorlanishi kerak</p> <p style="text-align: center;">Poydevor</p> <p>-Tasmasimon yaxlit quyma temir-betondan;</p> <p style="text-align: center;">Devor va oraliq devorlar</p> <p>-Armosetkali, pishiq g'ishtdan, qalinligi hisob-kitoblar asosida;</p> <p>Ustunlar – quyma temir-betondan</p> <p style="text-align: center;">Orayopma va tomyopmalar</p> <p>Ko'p bo'shliqli temir-beton plitalar va monolit quyma temir-beton;</p> <p style="text-align: center;">Tom qoplama</p> <p>-binolar karnizi metall karkasli alyumin kompozit panellardan yoki tunikapon;</p> <p>Tomni yopish ishlari yog'och konstruksiyalar yordamida varaqli rangli metall profil qalinligi 0.5mm qoplama bilan.</p> <p>Shamollatish derazalari o'rnatilsin,</p> <p>Issiqlik saqlovchi qoplama sifatida keramzit yoki minplitalardan bajarilishi belgilansin;</p> <p style="text-align: center;">Zina va zina maydochalari</p>

-yaxlit quyma temir-betondan yoki yig'ma temir-beton konstruksiyalardan;

Tashqi pardoqlash devor va sokol

-Sokol va devor yuzalari sementli suvoqlash va kremniyorganik emulsiya (akril tarkibli) bilan bo'yoqlash yoki suyuq travertin, keramik plitkalar, sport zal binosi zamonaviy sendvich ponel;

Ichki pardoqlash

devor va shift yuzalari

-sementli suvoqlash, suvli dispersiyali bo'yoq bilan bo'yoqlash,

-namgarchilik mavjud bo'lgan xonalar (oshxona, san/uzel) - devorlar (h=1.8m balandlikda) keramik plitkalardan, devorlar moy bo'yoqda bo'yoqlash; shiftlar plastik qoplamalardan.

Ovkatlanish zali shift yuzalari gipsokarton bilan qoplansin.

Deraza romlari

Plastik PVX dan oynalari ikki qavatli, shamollatish uchun fortochkalar yoki ochiladigan tabaqalardan tashkil topsin, derazalar pastki tokchalari tashqi tomondan ruxlangan tunuka bilan ichki tomondan PVX qoplama bilan qoplash nazarda tutilsin

Tashqi eshik va vitrajlar

-kuchaytirilgan oyna, alyumin profildan; ikki qavatli oyna va metall lambirdan

Ichki eshiklar

-MDF va alyumin (ikki qavat oynasi bilan) romlardan;

Pol

Barcha xonalar vazifasiga ko'ra, taxta, laminat, relin;

-ovqatlanish zali, foye, koridor va zinalar yuzasi silliq bo'lmagan keramik plitka, aglomerat;

-oshxona va namgarchilik bo'lgan xonalarda-keramik plitkalardan;

-yordamchi xonalar-beton;

Plintus

-MDF, yog'och va keramik plitkalardan;

Elektr tizimi

-mis kabel, LED yoritgichlar, namgarchilik bo'lgan xonalarda germetik yoritgichlar;

Issiq va sovuq suv tizimi, oqovasuv tarmog'i

-polipropilen quvurlardan;

-oqovasuv tizimi sifatli PVX quvurlaridan.

Yuvinish va ichki hojatxonalarda keramik umyvalniklar, unitaz va poddonlar o'rnatilishi nazarda tutilsin.

Yuvinish va yechinish xonalarida issiq pol tizimi o'rnatilishi rejalashtirilsin.

Isitish tizimi

- polipropilen quvurlar va bimetall radiatorlardan;

		<p>issiqlik tizimini cherdakdan yoki shiftdan tarqatish va o'z-o'zidan oquvchi bo'lishi nazarda tutilsin. Isitish tizimiga qo'shimcha ravishda nasos o'rnatilsin. Quvurlar issiqlik izolyatsiyasini ta'minlash nazarda tutilsin.</p>
13	<p>Muhandislik hamda texnologik jihozlarga bo'lgan asosiy talablar, texnologik jihozlar ro'yxati va yetkazib beruvchilar nomi.</p>	<p>-Buyurtmachining tavsiyalariga muvofiq holda maydon va yordamchi xonalarga inventar, qo'shimcha jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha talablar qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.</p> <p>-Jihozlar ishlab chiqaruvchi zavod xujjatlariga mos kelishi hamda sertifikatlar bilan tasdiqlanishi lozim;</p> <p>-Loyihaviy yechimlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg'or texnologiyalar va jihozlari qo'llanilishi mo'ljallangan bo'lishi lozim.</p> <p>Isitish va shamollatish tizimi:</p> <p>Isitish va shamollatish tizimi loyihalari QMQ 2.01.04-97; QMQ 2.04.05-97; ShNK 2.08.02-09; QMQ 3.05.01-97 talablariga muvofiq ishlab chiqilsin; Yuvinish va yechinish xonalarida issiq pol tizimi o'rnatilishi rejalashtirilsin.(3-etap)</p> <p>Isitish manbai sifatida modulli markaziy qozonxona yoki individual isitish qozoni (tabiiy gaz yoki ko'mirda ishlovchi),</p> <p>issiqlik suv manbai sifatida tashqi markaziy tarmoq (ichki markaziy tarmoq, elektr suv isitgichlar) qabul qilinsin; Xonadagi havo haroratini hisobini amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq belgilash.</p> <p>Shamollatish tizimida tabiiy va mexanik ravishda havo almashtirish nazarda tutilsin;</p> <p>Tashqi issiqlik tarmog'i :</p> <p>Tashqi issiqlik tarmog'i QMQ 2.04.07-99 ga asosan ishlab chiqilsin; shuningdek tashqi issiqlik tarmog'i quvurlaridan xavfsiz ravishda foydalanish bo'yicha Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasining amaldagi me'yoriy talablariga amal qilinsin;</p> <p>Elektr ta'minoti:</p> <p>Elektr ta'minotining ishonchlilik darajasi bo'yicha - II toifa;</p> <p>QMQ 2.01.05-19, QMQ 2.04.17-98, PUE, VNiPI 5.407-11 va TP.4.407-251larga muvofiq loyihalashtirilsin. Elektr yoritish tizimida, avariya va qutqarish yoritish tizimi uchun zamonaviy energotejamkor jihozlar va yoritqichlardan foydalanilsin. Loyihalaviy yechimlarni qo'llashda mahalliy ishlab chiqarilgan muqobil elektr ta'minoti bilan ta'minlash ishlari nazarda tutilsin. favqulodda yoritishni ta'minlash. Zazemleniya va zanulenieni ko'zda tutish. Elektr energiyasini hisobga olish uchun elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga</p>

		<p>olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) ko'zda tutish kerak.</p> <p style="text-align: center;">Suv ta'minoti:</p> <p>QMQ 2.04.01-98, QMQ 2.04.02-97, QMQ 2.04.03-97 va amaldagi standartlarga muvofiq bajarilsin. Binoga suv ta'minoti tashqi tarmoqdan bajarilsin. Issiq suv ta'minoti—elektr suv isitgichdan yoki markaziy isitish tarmog'idan. Oqovasuv tizimi QMQ 2.04.01-98, QMQ 2.04.03-97 ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Oqova suv tarmog'i kanalizatsiya tarmog'i o'z-o'zidan oqizib, ichki tarmoq orqali tashqi oqovasuv hovuziga chiqarilsin. Tiqlib qolishi mumkin bo'lgan joylarda kanalizatsiya quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini ta'minlash</p> <p style="text-align: center;">Yong'in signal tizimi:</p> <p>Yong'in haqida ogohlantirish tizimi, yong'in signal tizimi va evakuatsiya nazorati ShNQ 2.04.09-07 asosida amalga oshirilsin.</p> <p style="text-align: center;">Videokuzatuv:</p> <p>Video monitor, videoregistrator, kameralar o'rnatilishi ta'minlansin.</p>
14	Hududni obodontashtirish va kichik arxitektura shakllariga qo'yilgan talablar	<p>Loyiha-smeta hujjatlarida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarni amalga oshirish nazarda tutilsin.</p> <p>Bino perimetri bo'ylab beton yo'lak o'rnatilishi va hududdan yog'in suvlari chiqib ketishi ta'minlanishi nazarda tutilsin.</p> <p>Tashqi chiqindi tashlash maydonchasi va metall chiqindi qutisi o'rnatilishi belgilansin.</p> <p>Tashqi yoritish tizimi, o'rindiqlar va yengil konstruksiyali nazorat o'tish punkti nazarda tutilsin.</p> <p>Tashqi to'siq ishlari zamonaviy, yengil va mahalliy materiallardan bajarilishi ta'minlanishi nazarda tutilsin, Ob'ektda yong'in qarshi yo'laklar bo'lishi va yong'inga qarshi quti o'rnatilishi belgilansin</p>
15	Mehnat muhofazasi va mehnat salomatligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar	QMQ, ShNQ va SanPiNlarga muvofiq bajarilsin
16	Loyihalash uchun buyurtamachi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar va birlamchi ma'lumotlar tarkibi	-Ob'ektning yer ajratish qarori. Loyihalash topshirig'i
17	Atrof muhitni muhofaza	AMT loyihasi ishlab chiqilsin, ekologik ekspertizadan


	qilishga qo'yiladigan talablar	o'tkazilsin.
18	Ishchi loyiha tarkibi	<p>Ishchi chizmalar quyidagi tarkibda ishlab chiqilsin:</p> <p>Smeta hujjatlari GP-Bosh reja; MAF-Kichik arxitekturaviy shakllar AS-Arxitektura-qurilish qismi; TX-TeXnologik qism; EO-Elektr tizimi; OV-Isitish va shamollatish tizimi; VK-Sovuq suv va oqovasuv tarmog'i; PS,PO-yong'in signalizatsiyasi, yong'indan xabarlash tizimi; VN-Videokuzatuv; NVK-Tashqi suv va oqovasuv tarmog'i; NES-Tashqi elektr tarmog'i; OPS-Umumiy tushuntiruv yozuvi; POS-Qurilishni tashkil etish loyihasi</p> <p>Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tashkilotlariga taqdim etish uchun buyurtmachiga bir nuxsada (qog'oz va elektron shakllarda) taqdim etiladi.</p> <p>Ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng buyurtmachiga ShNQ 1.03.01-20ga asosan ishchi loyixalar 3 nuxsada qog'ozga chop etilgan holda va 1 nuxsada elektron disk ko'rinishida taqdim etadi</p>
19	Smeta hujjatlarini tuzish usuliga qo'yilgan talablar	<p>Ob'ektning boshlang'ich qiymati ShNQ 1.03.01-08 bo'yicha, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi №261-son, 2021-yil 17-sentabrdagi №579-son qarorlariga va qonunchilikda belgilangan tartiblar asosida, joriy narxlarda aniqlansin.</p> <p>Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan ish hajmlari, qurilish qilish, montaj qilish va maxsus ish turlari, loyihada qabul qilingan yechimlarga mos kelishi ta'minlansin.</p> <p>Smeta hujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq, rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narxlar bilan amaldagi narxlash tartibiga muvofiq ishlab chiqilsin;</p> <p>Ob'ektlarning hisob-kitoblar natijasida aniqlangan, joriy narxlardagi qurilish qiymatilari asoslangan va ishonchli bo'lishi ta'minlansin.</p> <p>Loyiha hujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq</p>

		<p>bo'lishi kerak;</p> <p>Smetalarni joriy narxlarda shakllantirish jarayonida qurilish mahsulotlari, mehnat resurslari, mashina va mexanizmlar uchun asosiy narxlar va qiymatlar quyidagi qiymatlarda qo'llanilsin:</p> <p>Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'rtacha soatlik ish haqi miqdori mintaqalarning o'rtacha statistik ma'lumotlari asosida; 2. Mashina va mexanizmlardan foydalanish uchun o'rtacha narxlar hamda sarflar miqdori o'rtacha statistik ma'lumotlar asosida; 3. Qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar va jihozlar birligiga xarajatlarning o'rtacha qiymati tayyorlovchi zavodlarning ulgurji sotish narxlari, qurilish materiallari birjalari va yarmarkalaridagi narxlari, joriy yilning qurilish narxlarni shakllantirish kataloglari asosida; 4. Pudratchining boshqa xarajatlari mintaqalarning o'rtacha statistik ma'lumotlar asosida; 5. Buyurtmachining boshqa xarajatlari va sarflari buyurtmachining ma'lumotlari asosida shakllantirilsin.
20	<p>Qabul qilinadigan loyiha yechimlarida energiya tejamkor va samarador yechimlarini qo'llash bo'yicha talablar</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2011 yildagi №161-son qaroriga muvofiq ob'ektlarning energiya samaradorligi bo'yicha zamonaviy, innovatsion yechimlarni taqdim etish, energiya tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsiya materiallari, uskunarlar va jihozlar, va mahsulotlardan foydalanilishi ta'minlansin.</p>
21	<p>Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zarur shart-sharoitlarni nazarda tutish bo'yicha talablar</p>	<p>ShNQ 2.07.02-07 «Insonlarning hayoti va faoliyati muhitini nogironlar ehtiyojlari va aholining kamharakatlanuvchi guruhlarini hisobga olgan holda loyihalash» va talablari rioya qilgan holda ishlab chiqilsin.</p> <p>Bunda majburiy tarzda nogironlar uchun pandus va sanuzel xonalariga to'siqsiz kirish nazarda tutilsin.</p> <p>Bundan tashqari O'ZR SanQvaM № 0368-19 hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi "Paraolimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5114 qarori talablariga to'liq rioya etilsin</p>

22	Yong'inga qarshi avtomatika vositalari, yong'indan darak beruvchi va yong'indan saqlovchi signalizatsiya bo'limini loyihalashtirishga qo'yilgan talablar	ShNQ 2.04.09-07 va ShNQ 2.01.02-04. talablari asosida bajarilsin.
23	Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash bo'yicha talablar	3D prezentatsiya, A1 o'lchamdagi planshet – umumiy fasad ko'rinishi, yuqoridan ko'rinish, landshaft umumiy ko'rinishi, Buyurtmachi talabiga asosan kelishish va tasdiqlash uchun materiallar ishlab chiqish
24	Muhandislik-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha talablar	Belgilangan tartibda amalga oshirilsin. Muhandislik-qidiruv ishlari-topotasvir, geologiya, gidrogeologiya, texnik ko'rik ishlari bajariladi. (shartnoma shartlari ko'ra)
25	Qurilishni amalga oshirilishi mo'ljallangan muddatlar	2022– 2023 yillar mobaynida
26	Loyihalash ob'ekti va qurilish murakkabligi darajasi	II darajali
27	Qurilishda mualliflik nazorati	Davriy ravishda qurilish-montaj ishlari boshlanishidan ob'ekt foydalanishga topshirilish muddatigacha
28	Qo'shimcha talablar	1. Bajaruvchi ekspertizadan o'tkazish jarayonida loyiha yechimlari to'g'ri qo'llanilganligi bo'yicha himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi 2. Loyiha tashkiloti ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlarini manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilishini ta'minlaydi. (Federatsiya, FVV, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik xizmati, arxitektura va qurilish boshqarmasi va h.k)
29	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish (POS)	Qurilishni tashkil etish loyihasi to'liq xajmda ShNQga mos ravishda ishlab chiqilsin

Izox: Tanlov savdolari natijasiga ko'ra aniqlangan loyiha tashkiloti tomonidan joyiga chiqqan xolda o'rganishlar natijasiga asosan loyixalash topshirig'iga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Samarqand viloyat hokimligi Injining kompaniyasi
“Birlamchi ruxsat beruvchi, loyiha va tanlov hujjatlarini
tayyorlash bo'limi” boshlig'i



A.Qodirov